

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

Yuristlar malakasini oshirish markazi

### KORRUPSIYAGA NISBATAN MUROSASIZLIGI TO'G'RISIDAGI YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI DIREKTORINING MUROJAATI

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq **korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish** korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



Rabiev

Sherzad Mirjalilovich

**Qabul qilish:**

seshanba

10.00-12.00

**Markazdagi lavozimi va ish stajidan qat'iy nazar, barcha xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarishda:**

- Markazning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga amal qilishi hamda uning tamoyillari va talablariga qat'iy rioya etishlari kerak;
- korrupsiya bilan bog'liq har qanday xattiharakatlarda ishtirok etishi, ya'ni pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya'ni pullar, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy tusdag'i xizmatlarni berishni talab qilish, tovlamachilik qilish, va'da berish va pora berish, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatichiliklarni soddallashtirish uchun to'lovlarni olish, shaxs tomonidan pora olish yoki g'ayriqonuniy boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanishi qat'iyan taqiqilanadi;
- xodimlar ularni korrupsiya bilan bog'liq huquqbazarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to'g'risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday faktlar haqida o'z rahbarlariga va Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga xabar berishlari shart;
- bevosita rahbar yoki mas'ul shaxsni manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli haqida xabardor qilish lozim.

## KORRUPSIYA FAKTI XAQIDA XABAR QILISH

-  Markazning korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha ishonch telefoni: **+99871 234-52-40**
-  Markazning elektron pochta manzili: [yurmarkaz@adliya.uz](mailto:yurmarkaz@adliya.uz)
-  O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining **"1008"** telefon raqami
-  O'zbekiston Respublikasi Adliya organlarining **@antikorbot** maxsus telegramm boti
-  O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi ishonch telefoni: **"1007"**
-  O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ishonch telefoni: **"1102"**

## ASOSIY HUJJATLAR

### O'zbekiston Respublikasi qonunlari

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/3088008>

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentyabrdagi O'RQ-445-son yangi tahrirdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/3336169>

### O'zbekiston Respublikasi qonunosti hujjatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni/ <https://lex.uz/docs/4875784>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi PF-6257-sonli "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni/ <https://lex.uz/docs/5495529>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi PQ-5177-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori/ <https://lex.uz/docs/5495533>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori/ <https://lex.uz/uz/docs/5819319>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagagi PQ-240-sonli "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori/ <https://lex.uz/uz/pdfs/6000285>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-sonli "Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga

boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori/ <https://lex.uz/docs/5193571>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini taminlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori/<https://lex.uz/pdfs/6236838>

### **Lokal normativ aktlar**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 22-yanvardagi 14-um-son "Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 24-fevraldag'i 42-um-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilash to'g'risida"gi buyrug'i

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 24-fevraldag'i 43-um-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'i

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 24-fevraldag'i 44-um-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'i

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 24-fevraldag'i 45-um-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, bartaraf etish, monitoring qilish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishi bo'yicha o'qitish ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 24-yanvardagi 11-um-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 29-sentabrdagi 230-um-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash amaliyotini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari haqida"gi buyrug'i.

### **Ichki idoraviy buyruqlar**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi direktorining 2022-yil 5-maydagi 10-um-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilash to'g'risida"gi buyrug'i.

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID MA'RIFAT**

Шакуров Р. Ички "комплаенс-назорат" тизими// "Muhofaza+" журнали. 11.2021. (203). – Б.5-6

Шакуров Р., Вохидов М. Роль структур внутреннего контроля в борьбе с коррупцией// "Postda. На посту", 18.11.2021, №46

Коррупцияга қарши "комплаенс-назорат" тизими?/ Коррупцияни енгиш учун давлат хизматчиларининг одоб-ахлоқи

<https://zarnews.uz/post/korruciyaga-qarshi-komplaens-nazorat-tizimi-nima/25.11.2021>

қандай бўлиши керак?  
<http://hudud24.uz/> korruptsiyani-engish-uchun-davlat-hizmatchilarining-odob-ahloki-kanday-bolishi-kerak/

Шакуров Р., Сафаров Т. Коррупцияга қарши ички комплаенс-назорат тизими: келиб чиқиши, ривожланиши ва ҳозирги ҳолати//“Huquq va burch”. 12.2021, №12

Адлия органлари ва муассасаларида коррупцияга қарши ички назорат тизими: саволлар ва жавоблар: қўлланма/тузувчилар Р.Р.Шакуров, Т.У.Сафаров. – Тошкент: Baktriya press, 2022. – 48 б.

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIGA

### OID ASOSIY TUSHUNCHALAR

#### **Korrupsiya**

shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish (“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi)

#### **Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik**

korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish (“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi)

#### **Manfaatlar to‘qnashuvi**

shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat (“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi)

#### **Pora olish**

davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat mavqeidan

foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xi洛f ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi (*O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasi*)

**Pora berish**

davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabдор shaxsiga mazkur mansabдор shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xi洛f ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish (*O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 211-moddasi*)

**Pora olish-berishda vositachilik qilish**

pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish (*O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 212-moddasi*)